


# 1-SINF UCHUN UYGA VAZIFALAR

No	Fan nomi	16.03.2020 y.	17.03.2020 y.	18.03.2020 y.	19.03.2020 y.
1	Ona tili	<p>Kim? Nima? Nima qildi?  <b>88-mashq.</b> Kim? Nima qildi? so'roqlariga javob bo'lgan so'zlarni aniqlash va tagiga chizish.  <i>Bahor keldi. <u>Dehqon</u> dala ishlarini boshladi.</i>            89-mashq. So'roqlarga mos so'zni qo'yib, gaplarni ko'chirish.  <i>(Nima?) Yomg'ir tindi. Chumoli(Nima qildi?) o'rmaladi.</i>  <i>(Qanday?) sayroqi qushlar navosi</i></p>	<p>Shaxs va narsaning nomini bildirgan so'zlar.  <b>91- mashq.</b>            She'rni ifodali o'qib, kim so'rog'iga javob bo'lgan so'zlarni aniqlash.  <i>Ulug' <u>Temurbobomiz</u> sevgan, sevingan vatan!</i>  <i><u>Bobur Mirzo</u> doimo qumsab sog'ingan vatan!</i>            92-mashq. Berilgan so'zlarni guruhlab yozing.  <i>Qush: turna, qaldirg'osh</i>  <i>Gul: binafsha, chuchmoma. Sabzavot: sabzi, piyoz.</i>            Uy ishi: 93-mashq.            Shartiga ko'ra bajariladi.</p>	<p>Shaxs va narsaning nomini bildirgan so'zlar.  <b>94- mashq.</b>            Nima? Nimalar?            Kim? Kimlar? so'rog'iga javob bo'lgan so'zlarni yozing.  <i>Kim? Qumri xola, Odil, Nargiza.</i>  <i>Kimlar? Bolalar.</i>  <i>Nima? Sumalak, doshqozon.</i>  <i>Nimalar? Ertaklar, qo'shiqlar.</i>  <b>95-mashq.</b>            Mashqdan avval <b>kim?</b> so'ng <b>nima?</b> so'roqlariga javob bo'lgan so'zlarni ko'chirib yozing.  <i>Kim? Amir Temur.</i>  <i>Nima? Saroy, hovuz, tovu.</i>  <i>Nimalar? Bog'lar, favvoralar, daraxtlar, gullar, ohular.</i>            Uy ishi: 96-mashq. shartiga ko'ra bajariladi.</p>	<p><b>Mustaqil ish.</b>            Diktant.  <i>Pilla</i>  <i>Pilla qurti bahorda boqiladi. Qurtlarga tut bargi beriladi. Izzat pilla qurti boqishga onasiga yordam beradi.</i></p> <p>Topshiriq: <i>pilla, tut, onasiga</i> so'zlariga bo'g'in ko'chirish qoidasiga ko'ra bo'g'inlab yozing. <i>Pil-la, tut, ona-siga, onasi-ga.</i></p> <p><b>Uy ishi:</b> O'tilgan mavzularni takrorlash.</p>

# 1-SINF UCHUN UYGA VAZIFALAR

No	Fan nomi	16.03.2020 y.	17.03.2020 y.	18.03.2020 y.	19.03.2020 y.
2	O'qish	<p><b>Navro'z. Rauf Tolib.</b> Rauf Tolib – mashhur bolalar shoiri. U 1946 yilda Toshkent shahrida tug'ilgan. "Gulxan", "G'uncha" jurnallarida faoliyat olib borgan. Uning ertak va hikoyalarini ham kitobxonlar sevib o'qiydilar.</p> <p><b>Darslik bilan ishlash:</b> 43- bet. "Navro'z" she'rini ifodali o'qish.</p>  <p><b>Mustaqil ish:</b> she'rni yod olish.</p>	<p><b>"Ko'klam –yashnaydi olam" bo'limi yuzasidan takrorlash.</b></p> <p><b>Darslik bilan ishlash:</b></p> <ol style="list-style-type: none"><li>1) 44- betdagi boshqotirmanini to'ldirish. Javobi alla.</li><li>2) Bahor gullari nomini aytish.</li></ol> <p><b>Uy ishi:</b> darslikning 45-betidagi savollarga yozma javob berish.</p>	<p><b>Mustaqil ish.</b> O'qish kitobining 95-betidagi "Musavvir" hikoyasini bir daqiqada nechta so'z o'qishi aniqlanadi.</p> <p><b>Uy ishi:</b> darslikning 95-betidagi "Musavvir" hikoyasi matni yuzasidan suhbat, mazmunini tushunib olish, qayta hikoya qilishga tayyorlanish.</p>	<p><b>Kitobni asrang.</b> O'qish kitobining 46-betidagi "Kitobni asrang" matni mustaqil o'qiladi.</p> <ol style="list-style-type: none"><li>1) Kitob haqida yodlagan she'rlaringizni yodga oling.</li><li>2) Kitob haqida maqol toping.</li><li>3) Topishmoqning javobini toping.</li></ol> <p><b>Uy ishi:</b> "Kitobni asrang" matnini ifodali o'qishga tayyorlanish.</p>

# 1-SINF UCHUN UYGA VAZIFALAR

No	Fan nomi	16.03.2020 y.	17.03.2020 y.	18.03.2020 y.	19.03.2020 y.
3	Matematika	<p><b>Mustaqil ish.</b>  <b>1-masala</b>                      Yumshatish k-k - 65 tup daraxt.                      Yumshatildi - 40 tup va 20 tup daraxt                      Yumshatish kk yana - ? tup daraxt                      Yechish:                      1) <math>40+20=60</math> (tup) yumshatildi                      2) <math>65-60=5</math> (tup)                      I: <math>65-(40+20)=5</math> (tup).                      Javob: 5 tup daraxtning tagini yumshatishlari kerak.</p> <p><b>2-misol</b>  <b>Ifodaning qiymatini toping.</b>  <math>(40+10)+6=56</math>  <math>(27+3)-5=25</math></p> <p><b>3-misol</b>                      Nuqtalar o'rniga +, - belgilarining mosini qo'ying.                      Namuna: <math>50 - 20=70</math></p> <p><b>4-misol</b>  <math>47= 40+</math>  <math>76=70+</math></p>	<p><b>Xatolar ustida ishlash.</b></p> <p>O'quvchilar ota-onalar yordamida yo'l qo'yilgan xatolar ustida ishlaydilar. Qoidalarni takrorlaydilar.</p>	<p><b>Narsalarning to'plamini xossalarga ko'ra bir necha to'plamga ajratish.</b></p> <p>Darslikning 123- betdagi 11-masala og'zaki, 12,13 va 14-misol va masalalar yozma bajariladi.</p> <p><b>Uy ishi:</b> 123-bet, 15-misol.</p>	<p><b>Namuna bo'yicha ketma-ketlikni davom ettirish.</b></p> <p>Darslikning 124- betdagi 1-misol va 2-masala yozma, 3 va 4 topshiriqlar og'zaki bajariladi.</p> <p><b>Uy ishi:</b> 124-bet, 5-misol.</p>